

**Kredit rasmiylashtirishdan oldin to‘ldiriladigan
CHECKLIST**

Kredit shartnomasini rasmiylashtirishdan (ofertani tasdiqlashdan) avval, ushbu ro‘yxatni diqqat bilan o‘qib chiqing va har bir bandni tushunganingizni tasdiqlang. Bu sizni kelgusida kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklardan saqlanishingiz uchun xizmat qilishi mumkin.

1.	Kredit - bu xarajat. <i>Kredit - bu men to‘lashim shart bo‘lgan moliyaviy majburiyatdir. Kreditning asosiy summasidan tashqari, kredit bo‘yicha hisoblangan foizlarni, shuningdek, ehtimol, kredit bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni (sug‘urta, kredit to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlari va boshqalar) ham to‘lashimga to‘g‘ri keladi.</i>	
2.	Kreditni qaytarish jadvalini diqqat bilan o‘rganib chiqdim. <i>Kreditni qaytarish jadvalidagi barcha sanalar va to‘lov miqdorlari hamda ushbu to‘lovlarni amalga oshirish usullari bilan tanishdim. Mazkur jadvalga muvofiq har oyda qachon va qancha miqdorda to‘lovlar to‘lashim kerakligini tushundim hamda ularni o‘z vaqtida bajara olaman.</i>	
3.	Daromadlarim kredit to‘lovlarini to‘lash imkonini beradi. <i>Mazkur kreditni olishda men oylik daromadim va doimiy xarajatlarimni (boshqa kreditlarim, ijara, kommunal xizmatlar, transport va boshqa xarajatlarni), shuningdek kredit bo‘yicha o‘z majburiyatlarimni bajara olmasligimga olib kelishi mumkin bo‘lgan yengib bo‘lmas kuch ta‘siridagi vaziyatlar (holatlar)ni yuz berishi ehtimolini (ishimni yo‘qotish, ish haqi va boshqa daromadlarni kechikishi, sog‘ligimning yomonlashishi) inobatga oldim.</i>	
4.	Kredit to‘lovlarini kechiktirish oqibatlaridan xabardorman. <i>Kredit to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirmasam, bank tomonidan ushbu qarzdorlik bo‘yicha tegishli jarima va penyalar belgilanishini, shuningdek, agar kredit qarzdorligi sud orqali undirilsa, mazkur sud xarajatlarini ham to‘lashim mumkinligini tushundim. Bundan tashqari, kredit tariximda majburiyatlar o‘z vaqtida bajarilmagani to‘g‘risida ma‘lumotlar aks ettirilishi, bu esa kelgusida moliyaviy tashkilotlardan kredit olish imkoniyatimni pasayishiga va/yoki noqulay shartlarda kredit olishimga sabab bo‘lishi mumkinligini bilaman.</i>	
Tasdiqlayman _____		
(imzo)		(F.I.Sh)
Sana: _____		
kun	oy	yil